XALQ DEPUTATLARI PASTDARG‘OM TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

140502, Самарқанд вилояти, Пастдарғом тумани, Жума шаҳри Хамид Олимжон кўчаси, 15-уй, тел: (8-366) 2319823

2022 - yil 30 - dekabr VI-78-222-7-101-K/22 Pastdarg‘om tumani hokimligi

Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining “Samarqand viloyati 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2023-yil uchun Pastdarg‘om tumani budjetini qabul qilish bo‘yicha loyihani muhokama etib, Xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani Kengashining yetmish sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Samarqand viloyati Xalq deputatlari Kengashining “Samarqand viloyati 2023- yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

Qarorga asosan:

Pastdarg‘om tumani budjetiga Samarqand viloyati budjetidan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 127 488 190 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi. Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozining ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunida

belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin;

tuman budjetining aylanma kassa mablag‘i 1 805 000 ming so‘m miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashi qaroriga asosan 2023-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari tuman budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

- Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno;

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa to‘lovlar vilotning viloyat budjeti hamda tuman mahalliy budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 75 foiz miqdorda tuman budjetiga;

- foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘xatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 40 foiz miqdorda tuman budjetiga;

- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i 50 foiz miqdorida tuman budjetiga;

- yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i 100 foiz miqdorida tuman budjetiga;

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i 100 foiz miqdorida tuman budjetiga;

- aylanmadan soliq 100 foiz miqdorida tuman budjetiga;

- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar 100 miqdorida tuman budjetiga;

- ayrim tovarlarning chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig‘im 100 foiz miqdorida tuman budjetiga;

- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona yig‘imlaridan tashqari) 100 foiz miqdorida tuman budjetiga;

- Mobil aloqa xizmati va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar tegishli ravishda 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun tuman budjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjetidan 2023-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022-yil uchun tuman budjeti zahira jamg‘armasi hajmi 3 640 768,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Nazarov), tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Karimov), Davlat soliq inspeksiyasi (A.Axmedov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

- tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq ovqat va dori-darmon hamda kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

- mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

- budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

- tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

- budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

7. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Nazarov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (F.Islamova), tuman hokimligining tegishli bo‘lim va tashkilot rahbarlari:

- har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar rasmiy veb-saytlarga o‘z tasarrufidagi budjet tashkilotlari kesimida moliyaviy hisobotlarni hamda boshqa tegishli ma’lumotlarni joylashtirsin;

- budjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatishi uchun tuman Kengashiga doimiy ravishda ma’lumot kiritib borsin.

O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy

komissiyasi (N.Aliyev) va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Tuman Kengashi raisi **Sh.Xudayberdiyev**

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-78-222-7-101-K/22-son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumani mahalliy budjetining daromadlarning 2023-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

T/R	Daromad turlari	Jami
	Jami daromadlar	**258 433 250**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	80 199 750
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	9 284 000
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13 417 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	21 955 000
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 300 000
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 911 000
7	Norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	4 300 000
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 956 000
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	29 888 000
10	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	15 475 500
11	Korxonalar aylanmasidan soliq	9 526 000
12	Yig‘imlar	702 000
13	Boshqalar	0
14	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	324 000
15	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	24 352 000
16	Mobil aloqa xizmati	10 446 000
17	Sigaret uchun aksiz solig‘i	25 397 000

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-78-222-7-101-K/22-son qaroriga
2-ilova

Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumani mahalliy budjeti xarajatlarining 2023 yilgi asosiy ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

T/R	Sohalar nomi	Mablag‘
	Jami xarajatlar	**385 921 440**
1	Xalq ta’limi bo‘limi	17 462 394
2	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	24 074 651
3	Sog‘liqni saqlash	110 054 000
4	Madaniyat bo‘limi va tasarrufidagi tashkilotlar	8 555 317
5	Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 374 198
6	Tuman irrigatsiya bo‘limi	2 858 750
7	Sport bo‘limi va tasarrufidagi tashkilotlar	5 813 616
8	Tuman veterinariya va chorvachilik rivojlantirish bo‘limi	2 442 000
9	Bandlik va mehnat munosabatlari bo‘limi	959 813
10	Tuman hokimligi Moliya bo‘limi	1 475 320
11	Tuman hokimligi	186 574 160
12	O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Samarqand viloyat Pastdarg‘om tumandagi muassasalar	623 655
13	Xalq deputatlari tuman kengashi	207 804
14	Mahalla va nuroniylarni qullab-quvvatlash bo‘limi	8 135 070
15	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Pastdarg‘om tumani bo‘limi	9 277 838
16	Pastdarg‘om tumani Oila va xotin-qizlar bo‘limi	6 032 854